

VOYAGA YETMAGANLARNI INTERNETDAGI TAHDIDLARDAN HIMOYA QILISHNING AFZALLIGI VA ZARURATI

*Jamoat xavfsizligi universiteti
magistratura tinglovchisi
Jo'rayev Qobiljon Olimjonovich*

Annotatsiya: Mazkur maqolada voyaga yetmaganlarni internetdagi tahdidlardan himoya qilishning huquqiy asoslari, zarurati va afzalliklari kompleks tarzda tahlil qilinadi. Xususan, xalqaro huquq normalari, O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligi hamda xorijiy tajriba asosida ushbu sohadagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari yoritiladi.

Kalit so'zlar: voyaga yetmaganlar, internet xavfsizligi, kiberxavfsizlik, huquqiy himoya, xalqaro huquq, kiberjinoyatchilik, axborot xavfsizligi.

Kirish

Raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan hozirgi davrda internet inson hayotining barcha sohalariga chuqur kirib bordi. Voyaga yetmaganlar ham internet foydalanuvchilarining eng faol qatlamiga aylangan. Biroq, internetdan foydalanish jarayonida yuzaga kelayotgan tahdidlar ularning huquq va erkinliklariga jiddiy xavf tug'dirmoqda.

Afsuski, bolalar ijtimoiy tarmoqlardagi axborotni tanlash va tahlil qilish qobiliyatiga to'liq ega emasligi sababli, ular yolg'on ma'lumotlar, virtual tahdidlar, noxush kontent va salbiy ta'sirlardan himoyaga muhtojdirlar. Shu nuqtai nazardan, otalarning elektron muhitdagi mas'uliyati bugungi kunda juda dolzarb masalaga aylangan.

Shu o'rinda mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning mulohazalariga e'tibor qaratsak: "...yoshlar hayoti, o'y-kechinmalari, orzu-niyatlari, eng muhimi, ularni qiynayotgan masalalar, afsuski, radio va televideniye, gazeta va jurnallarda o'z ifodasini to'liq topmayapti. Go'yoki hamma narsa joyida, olam guliston. Agar hammasi joyida bo'lsa, to'g'ri yo'ldan adashgan yoshlar, jinoyatchilik, ishsizlik qayerdan paydo bo'lyapti? Nega yoshlarga oid davlat siyosatiga loqayd munosabatda bo'layotgan amaldorlar haqida ommaviy axborot vositalari, avvalo, yoshlar matbuoti churq etmaydi?"¹.

Global axborot tizimidagi xabarlarni "filtrsiz" qabul qilish oqibatida yoshlar ongi zaharlanmoqda. Masalan, biror kerakli ma'lumotni olish maqsadida saytga kirgan

¹ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – T: "O'zbekiston", 2017. 17-bet.

yoshlarning “falonchi mashhur shaxs halokatga uchradi” kabi shov-shuvli e’longa ko’zi tushadi va beixtiyor uni ochadi. U yerda esa yana bir sayt ochiladi va unda aldanchi xabarlarining davomini o’qiydi. Shu tariqa g’o’r yoshlar g’alamislarning tuzog’iga ilinadi.

Bunday jirkanch “madaniyat” ta’siriga berilgan o’smir loqayd, hayotga yengil-yelpi qaraydigan, yurt ravnaqi va xalq tinchligiga befarq kimsa bo’lib ulg’ayadi. Shuningdek, olomoncha madaniyat tuzog’iga ilingan bolalar inson istagan ishini qilaverishi mumkin, deb biladi, ya’ni o’taketgan manqurtga aylanib qoladi²

Bugungi raqamli davrda ijtimoiy tarmoqlar bolalar hayotining ajralmas qismiga aylangan. Bolalar va o’smirlar uchun Instagram, TikTok, Telegram, YouTube va boshqa platformalar nafaqat axborot manbai, balki muloqot, o’yin-kulgi va shaxsiy fikr ifodasining maydoniga aylanmoqda. Bu holat, albatta, ma’lum ijobiy jihatlarga ega bo’lsada, nazoratsiz va me’yorsiz foydalanish jiddiy xavflarni keltirib chiqarishi mumkin.

DataReportalning 2025-yilgi tadqiqotlari shuni ko’rsatadiki, 2025-yil yanvarida O’zbekistonda 32,7 million internet foydalanuvchisi bo’lgan. O’zbekistonda internetdan foydalanish darajasi jami aholining 89,0 foizini tashkil qildi. 2025-yil yanvarida O’zbekistonda 11,7 million faol ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisi bo’lgan.

O’zbekistonda ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari 2024-yil boshidan 2025-yil boshigacha 3 millionga (+33,9 foiz) oshgan³.

Amerikalik o’smirlar yettita mashhur ijtimoiy media ilovasidan foydalanishda kuniga o’rtacha soatlar soni, YouTube, TikTok va Instagram ijtimoiy tarmoqlardagi vaqtlarining 87 foizini tashkil qiladi. Xususan, o’smirlarning 37 foizi kuniga 5 yoki undan ko’proq soat, 14 foizi kuniga 4 soatdan 5 soatgacha, 26 foizi kuniga 2 soatdan 4 soatgacha, 23 foizi esa kuniga 2 soatdan kam vaqtini ushbu uchta ilovaga sarflashini aytadi⁴.

Onlayn xavflar: Kiberbulling - boshqalarni internet orqali haqorat qilish, masxaralash, tahdid qilish holatlari. Bu bolalarning ruhiy salomatligiga jiddiy ta’sir ko’rsatadi. Shuningdek, noo’rin kontentlar, aldanchi shaxslar bilan aloqa va shaxsiy ma’lumotlarning tarqalishi asosiy muammolardir⁵.

Shu bois, mazkur sohada samarali huquqiy mexanizmlarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

² Xaydarova X.R. Axborotlashgan jamiyat sharoitida otaonalarning virtual-pedagogik madaniyatini rivojlantirish masalalari. Monografiya. –T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyotmatbaa uyi” 2022. 168-bet.

³ <https://datareportal.com/reports/digital-2025-uzbekistan>

⁴ Rothwell, J. (October 27, 2023). Parenting mitigates social media-linked mental health issues. Gallup. Survey conducted between June 26–July 17, 2023.

⁵ Rothwell, J. (2023). How parenting and self-control mediate the link between social media use and mental health. <https://ifstudies.org/ifs-admin/resources/briefs/ifs-gallup-parentingsocialmediascreentime-october2023-1.pdf>

Voyaga yetmaganlarni himoya qilishning xalqaro-huquqiy asoslari:

Voyaga yetmaganlarni internetdagi tahdidlardan himoya qilish bir qator xalqaro huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi:

➤ **BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasi:** 1989-yil 20-noyabrda qabul qilingan, bolalarning asosiy huquqlarini belgilovchi eng to'liq xalqaro huquqiy hujjatdir. U yashash, rivojlanish, himoyalani va ishtirok etish huquqlarini kafolatlaydi. O'zbekiston ushbu konvensiyani 1992-yil 9-dekabrda ratifikatsiya qilgan. Bolaning turli milliy va xalqaro manbalardan olingan axborotlar hamda materiallari, ayniqsa, ijtimoiy, ma'naviy va axloqiy farovonlikka, shuningdek bolaning sog'lom, jismoniy va ruhiy rivojlanishiga ko'maklashishga qaratilgan axborotlar va materiallardan foydalanish imkoniyatini ta'minlaydi. (17-modda).

➤ **Yevropa Kengashining Budapesht konvensiyasi:** Kiberjinoyatlar to'g'risidagi konvensiya (shuningdek, Kiberjinoyatlar to'g'risidagi Budapesht konvensiyasi yoki Budapesht konvensiyasi sifatida ham tanilgan) milliy qonunlarni uyg'unlashtirish, tergov usullarini takomillashtirish va davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni oshirish orqali Internet va kompyuter jinoyatlarini (kiber jinoyatlar) hal qilishga qaratilgan birinchi xalqaro shartnomadir. U Fransiyaning Strasburg shahrida Yevropa Kengashi tomonidan Yevropa Kengashining kuzatuvchi bir qancha davlatlari Kanada, Yaponiya, Filippin, Janubiy Afrika va AQShning faol ishtirokida ishlab chiqilgan. Konvensiya va uning tayyorlangan hisoboti Yevropa Kengashi Vazirlar Qo'mitasi tomonidan 2001-yil 8-noyabrdagi 109-sessiyasida qabul qilingan. 2001-yil 23-noyabrda Vengriya poytaxti Budapeshtda imzolash uchun chaqirilgan va 2004-yil 1-iyuldan boshlab kuchga kirgan. 2020-yil dekabr holatiga ko'ra, 65 davlat konvensiyani ratifikatsiya qilgan, yana to'rtta davlat konvensiyani imzolagan, ammo uni ratifikatsiya qilmagan. – kiberjinoyatchilikka qarshi kurashishning asosiy xalqaro mexanizmlaridan biri.

➤ **UNICEF tavsiyalari:** Unicef 1946-yilda BMT tomonidan tashkil etilgan Xalqaro bolalar jamg'armasining (ISEF) vorisi, 1994-yildan buyon Unicef O'zbekistonda bolalar va ularning oilalari hayotini yaxshilash, **eng kam ta'minlangan** qatlamlarga alohida e'tibor qaratish bo'yicha ish olib boradi. – bolalar uchun xavfsiz raqamli muhit yaratish bo'yicha yo'riqnomalarni o'z ichiga oladi.

Mazkur hujjatlar davlatlarga voyaga yetmaganlarni zararli kontent va kiberjinoyatlardan himoya qilish majburiyatini yuklaydi.

O'zbekiston Respublikasida huquqiy tartibga solish:

O'zbekistonda voyaga yetmaganlarni internetdagi tahdidlardan himoya qilish quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi:

➤ **O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi** – inson huquqlari va erkinliklarini, jumladan bolalar huquqlarini himoya qilishni kafolatlaydi;

➤ **“Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun:** 2008-yil 7-yanvar kuni “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi. Qonunning maqsadi bola huquqlarining kafolatlari sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir. Bolalarni axborotning zararli ta’siridan himoya qilishni nazarda tutadi;

➤ **“Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonun:** 2003-yil 11-dekabr kuni Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilindi. Axborot xavfsizligi va foydalanuvchilarni himoya qilish masalalarini tartibga soladi;

➤ **“Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi Qonun** – tarqatilayotgan axborotning qonuniyligini belgilaydi;

➤ **Jinoyat kodeksi** – pornografik materiallar tarqatish, shaxsiy ma’lumotlarni noqonuniy yig‘ish kabi qilmishlar uchun javobgarlikni belgilaydi;

➤ **Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks** – internet orqali sodir etilgan ayrim huquqbuzarliklar uchun javobgarlik choralarini belgilaydi.

Shuningdek, so‘nggi yillarda axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlikni kuchaytirishga qaratilgan qator davlat dasturlari qabul qilingan.

Internetdagi tahdidlarning huquqiy tavsifi:

Voyaga yetmaganlarga nisbatan internet orqali sodir etiladigan huquqbuzarliklar quyidagi turlarga bo‘linadi:

➤ **Kiberbulling** – sha’n va qadr-qimmatni kamsitish (fuqarolik va ma’muriy javobgarlikni keltirib chiqaradi);

➤ **Grooming** – voyaga yetmaganlarni jinsiy maqsadlarda jalb qilish (jinoyat tarkibini tashkil etadi);

➤ **Zararli kontent tarqatish** – pornografiya, zo‘ravonlikni targ‘ib qilish (jinoyat javobgarligi mavjud);

➤ **Shaxsiy ma’lumotlarni buzish** – maxfiylik huquqining buzilishi;

➤ **Firibgarlik** – moddiy zarar yetkazishga qaratilgan noqonuniy harakatlar.

Mazkur huquqbuzarliklar bolalarning konstitutsiyaviy huquqlari, xususan, xavfsizlik, sha’n va qadr-qimmat, shaxsiy hayot daxlsizligi huquqlariga tajovuz qiladi.

Himoya qilishning zarurati

Voyaga yetmaganlarni internetdagi tahdidlardan himoya qilish zarurati quyidagi huquqiy omillar bilan izohlanadi:

Birinchi, davlat bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha konstitutsiyaviy majburiyatga ega.

Ikkinchi, voyaga yetmaganlar alohida himoyaga muhtoj subyekt sifatida e’tirof etiladi.

Uchinchi, kiberjinoyatchilik transmilliy xususiyatga ega bo‘lib, u bilan kurashish kuchli huquqiy mexanizmlarni talab etadi.

Himoya qilishning afzalliklari:

Yuridik jihatdan himoya choralaring amalga oshirilishi quyidagi ijobiy natijalarni beradi:

- bolalarning huquq va erkinliklari ishonchli himoya qilinadi;
- kiberjinoyatchilik darajasi pasayadi;
- jamiyatda huquqiy madaniyat oshadi;
- davlatning xalqaro majburiyatlari bajariladi;
- xavfsiz axborot muhiti shakllanadi.

Muammolar va takliflar:

Amaliyotda quyidagi muammolar mavjud:

- huquqiy normalarning yetarli darajada samarali qo'llanilmasligi;
- ota-onalar va pedagoglarning raqamli savodxonligi pastligi;
- nazorat mexanizmlarining yetarli emasligi.

Ushbu muammolarni hal etish uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- maxsus “bolalarni internetdan himoya qilish to'g'risida” qonunni ishlab chiqish;
- kiberpolitsiya faoliyatini kuchaytirish;
- ta'lim tizimida raqamli xavfsizlik fanlarini joriy etish;
- xalqaro hamkorlikni kengaytirish.

Xulosa

Voyaga yetmaganlarni internetdagi tahdidlardan himoya qilish nafaqat ijtimoiy, balki muhim yuridik masala hisoblanadi. Mazkur yo'nalishda samarali huquqiy mexanizmlarni joriy etish orqali bolalarning xavfsizligini ta'minlash va ularning barkamol rivojlanishiga erishish mumkin. Shu bois, davlat, jamiyat va oila hamkorligida kompleks yondashuvni amalga oshirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasi, 1989-yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
3. “Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi Qonun.
4. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi.
5. Budapesht konvensiyasi, 2001-yil.
6. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – T: “O'zbekiston”, 2017. 17-bet.
7. Xaydarova X.R. Axborotlashgan jamiyat sharoitida otaonalarining virtual-pedagogik madaniyatini rivojlantirish masalalari. Monografiya. –T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyotmatbaa uyi” 2022. 168-bet.